

**PROKUROR LAVOZIMIGA TAYINLASH VA OZOD QILISH HAMDA UNING
FAOLIYATIDAGI ASOSIY PRINSIPLAR**

Tursunov Saydullo Nurmuhammad o'g'li

Namangan davlat universiteti

“Yurisprudensiya” yo'nalishi 1-kurs talabasi.

E-mail: saudulloh48@gmail.com

Po'latov Otabek

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19054164>

Annotatsiya. Mazkur maqolada prokuror lavozimiga tayinlash va uni lavozimidan ozod etish tartibining huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplari, jumladan, qonuniylik, mustaqillik, markazlashuv va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan tamoyillar yoritib beriladi. Maqolada prokurorlarning vakolatlari, ularni tayinlash va lavozimidan ozod qilishda davlat organlarining roli hamda ushbu jarayonlarning amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ularning faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash masalalari yuzasidan muhim xulosalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: prokuror, lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod qilish, prokuror faoliyatining prinsiplari, huquqiy tartibga solish, davlat nazorati, jamoatchilik aloqasi, gender muvozanati.

Prokuror” atamasi lotincha procurator so'zidan olingan. Pro – “nomidan”, “uchun”, “manfaatini himoya qilib” degan ma'noni bildiradi. Curare – “g'amxo'rlik qilish”, “boshqarish”, “ish yuritish” degan ma'noni anglatadi. Shu sababli procurator so'zi dastlab “boshqa shaxs nomidan ish yurituvchi yoki vakil” degan ma'noda ishlatilgan. Bu atama ilk bor Qadimgi Rim davrida qo'llanilgan. Rim imperiyasida procurator deb imperator yoki yuqori mansabdor shaxs nomidan moliyaviy va ma'muriy ishlarni boshqaruvchi vakillarga aytilgan.

Keyinchalik Yevropa davlatlarida huquq tizimi rivojlanishi bilan ushbu atama sud va prokuratura tizimida ishlatiladigan huquqiy lavozim nomiga aylangan. Prokuratura organlarini tashkil etish va ularning faoliyatini davlatimiz hududida samarali amalga oshirish maqsadida 1992-yil 8-yanvarda “O'zbekiston Respublikasi Prokuratura organlari to'g'risida”gi Prezident farmoni va 24-yanvarda “O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan. 1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni ham qabul qilingan.

Prokuror — bu davlat nomidan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qiluvchi hamda jinoyat ishlari bo'yicha davlat ayblovinini qo'llab-quvvatlovchi mansabdor shaxsdir. U prokuratura organlari tizimida faoliyat yuritadi va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining XXV bobida ham o'z o'rniga ega. Ushbu bob 143-146-moddalarni o'z ichiga oladi prokuratura faoliyati haqida ma'lumotlar berib o'tadi. Prokuror lavozimiga tayinlash tartibi, talablar va jarayonlar davlatning huquqiy tizimida muhim o'rin tutadi.

Prokurorlar davlat organlarining vakillari sifatida, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi vazifalarni bajaradilar. Prokuror lavozimiga tayinlash uchun bir qator talablar mavjud. Birinchi navbatda, prokuror bo'lish uchun shaxsiy sifatlar muhim ahamiyatga ega ya'ni yuqori darajadagi axloqiy me'yorlarga rioya qilishi, adolatli, mas'uliyatli va kasbiy bilimga ega bo'lishi kerak.

Prokuror lavozimiga tayinlanish uchun talab qilinadigan bilim va malakalar ham muhimdir. Prokuror bo'lish uchun yuridik ta'limga ega bo'lish, ya'ni yuridik fakultetni tamomlagan bo'lish talab etiladi. Bundan tashqari, prokurorlik faoliyati bo'yicha tajriba ham zarur. Ko'pincha, prokurorlar avval boshqa huquqiy lavozimlarda, masalan, advokat yoki sudya sifatida ishlagan bo'lishi ma'qul. Bu tajriba ularga sud jarayonlarini, qonunlarni va ularning qo'llanilishini chuqur tushunishga yordam beradi. Prokuratura organlari faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bosh prokuror mamlakat prokuratura tizimining rahbari hisoblanadi. U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, shuningdek bu masala parlament tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Hududiy prokurorlar, ya'ni viloyat, tuman va shahar prokurorlari esa odatda bosh prokuror tomonidan tayinlanadi. Prokuror tayinlash jarayoni ko'pincha ochiq va shaffof bo'lishi kerak, bu esa jamoatchilikning ishonchini oshirishga yordam beradi. Tayinlash jarayoni ko'pincha malaka oshirish va tanlov asosida amalga oshiriladi. Ularning faoliyati bir qator asosiy prinsiplar asosida tashkil etiladi. Birinchi prinsip qonun ustuvorligi hisoblanadi. Prokurorlar o'z faoliyatlarida qonunlarni qat'iy ravishda ijro etishlari, shuningdek, qonuniyligni ta'minlashlari lozim. Bu prinsip prokurorlarning huquqiy tizimdagi rolini belgilaydi va ularning faoliyatini yo'naltiradi. Ikkinchi prinsip adolatdir. Prokurorlar o'z ishlarida adolatni ta'minlashga intilishlari kerak. Bu, avvalo, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jinoyatga jalb qilingan shaxslarning huquqlarini himoya qilishni anglatadi. Prokurorlar o'z faoliyatlarida barcha shaxslarni teng muomala qilishlari, shuningdek, har bir ishni adolatli va obyektiv ravishda ko'rib chiqishlari lozim. Uchinchi prinsip esa shaffoflikdir. Prokurorlar o'z faoliyatlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashlari zarur. Bu, jamoatchilikning prokurorlik organlariga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Prokurorlar o'z ishlarining natijalari haqida jamoatchilikni xabardor qilishlari, shuningdek, o'z faoliyatlarini baholash va nazorat qilish imkoniyatlarini yaratishlari lozim. Bu bo'limda prokuror lavozimidan ozod qilish sabablari, ularning turlari, jarayonning tartibi va qonuniy asoslari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Prokuror lavozimidan ozod qilishga quyidagi holatlar asos bo'lishi mumkin. Vakolat muddatining tugashi, shaxsiy arizasi asosida lavozimdan ketish, sog'lig'i sababli vazifasini bajarishga qodir emasligi, intizomiy yoki xizmat majburiyatlarini qo'pol ravishda buzishi, sud hukmi bilan aybdor deb topilishi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlar. prokurorning shaxsiy xohishi, sog'lig'i bilan bog'liq muammolar, xizmatdagi kamchiliklar, qonunbuzarliklar va boshqa sabablar mavjud. Prokuror faoliyatining asosiy prinsiplari qatoriga qonuniylig, oshoralik, mustaqillik, markazlashuv va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish kabilar kiradi. Ushbu ma'lumotlar "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida yoritilgan. Prokuror faoliyatini nazorat qilish va baholash mexanizmlari huquqiy tizimning muhim qismi hisoblanadi. Prokurorlar qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Shu sababli ularning faoliyatini samarali va shaffof nazorat qilish hamda javobgarligini oshirish zarur. Bu jarayonda ichki va tashqi nazorat tizimlari muhim ahamiyatga ega. Ichki nazorat tizimi prokuratura organlari doirasida amalga oshiriladi va prokurorlarning xizmat faoliyatini nazorat qilish, ularning qonunlarga muvofiq ishlashini tekshirish hamda ish samaradorligini baholashga qaratilgan. Shuningdek, u prokurorlarning malakasini oshirish va professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Tashqi nazorat tizimi esa prokurorlar faoliyatini mustaqil baholashni ta'minlaydi. Unda davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolar ishtirok etib, prokurorlar faoliyatining qonuniyligini tekshiradi hamda fuqarolar huquqlarining himoya qilinishiga ko'maklashadi. Bu tizim prokuratura faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlab, jamiyat ishonchini oshiradi. Prokuror va jamoatchilik aloqalarining mohiyati quyidagilardan iborat. Prokuror jamoatchilik bilan doimiy aloqada bo'lish orqali: fuqarolarning murojaatlarini qabul qiladi; qonunlarning mazmunini tushuntiradi; huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha targ'ibot olib boradi; jamiyatda qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu aloqa ochiq muloqot, axborot almashish va hamkorlik asosida amalga oshiriladi.

Xulosa va mulohazalar.

Prokurorlarning faoliyatida gender muvozanati — bu prokuratura tizimida erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning kasbiy faoliyatda teng ishtirok etishini ta'minlash hamda kamsitishsiz muhitni shakllantirishni anglatadi. Gender muvozanati demokratik jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Gender muvozanati — bu erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquq va teng vakillikni ta'minlashdir. Prokuratura tizimida bu quyidagilarni anglatadi: ishga qabul qilishda teng imkoniyatlar; lavozimlarda teng vakillik; xizmat faoliyatida kamsitishning oldini olish; kasbiy rivojlanish uchun teng sharoit yaratish. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qarori 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida so'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Prokuror lavozimidagi o'zgarishlarning jamiyatdagi ta'siri — prokuratura tizimidagi rahbarlik yoki tarkibiy o'zgarishlarning davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi va fuqarolarning huquqiy himoyasiga qanday ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Prokuror lavozimi muhim davlat lavozimi bo'lgani sababli undagi har qanday o'zgarish jamiyat hayotida sezilarli ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, prokuror lavozimiga tayinlash va ozod qilish jarayoni, shuningdek, uning faoliyatidagi asosiy prinsiplar, huquqiy tizimning ishonchliligini va adolatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni takomillashtirish orqali, prokuraturaning samaradorligini oshirish va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prokuratura organlari to'g'risida"gi Prezident farmoni

4. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori
5. Xusanov O.T Konstitutsiyaviy huquq